

DAVLAT MOLIVASI TIZIMIDAGI ISLOHOTLAR VA ULARNING USTUVOR YO'NALISHLARI

Abduraximov Alisher Dilmurod O'g'li

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Davlat moliyasi va xalqaro moliya
mutaxassisligi 1-bosqich magistranti*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada davlat moliyasini boshqarish, O'zbekistonda davlat moliyasini samarali boshqarish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar va davlat moliya tizimini takomillashtirish bo'yicha strategiyaning ustuvor yo'nalishlari tadqiq etilgan.*

Kalit so'zlar: *moliya, davlat moliyasi, davlat moliyasini boshqarish, taraqqiyot strategiyasi.*

Abstract: *This article examines the priorities of public finance management, reforms in effective public finance management in Uzbekistan and the strategy for improving the public financial system.*

Keywords: *finance, public finance, public finance management, development strategy, public finance system improvement strategy.*

KIRISH

Bugungi kunda jamiyat va davlat hayotining barcha sohalari shiddat bilan rivojlanayotgani islohotlarni mamlakatimizning jahon sivilizatsiyasi yetakchilari qatoriga kirish yo'lida tez va sifatli ilgarilashini ta'minlaydigan davlat moliyasini boshqarishni takomillashtirishga asoslangan holda amalga oshirishni taqozo etadi. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida mamlakatimizda davlat moliyasining barqarorligini ta'minlashga qaratilgan islohotlar izchillik bilan amalga oshirilmoqda. Bu borada muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning quyidagi fikrlarini keltirib o'tish joizdir, "Makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarini saqlab qolish, jumladan, Davlat byudjeti barcha darajada mutanosib, milliy valyuta va ichki bozordagi narx darajasi barqaror bo'lishini ta'minlash - eng muhim ustuvor vazifamizdir. 2018 yilda PEFA metodologiyasi bo'yicha amaldagi byudjet tizimining tanqidiy tahlili, davlat moliyasini boshqarish samaradorligini baholash natijalari hamda Xalqaro valyuta jamg'armasining shaffoflik Kodeksi asosida soliq-byudjet siyosati ochiqligi yuzasidan o'tkazilgan diagnostik baholashlardan kelib chiqib so'ngi ikki yilda davlat moliyasi boshqarishni takomillashtirish bo'yicha bir qator tadbirlar amalga oshirildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti (keyingi o'rinlarda Davlat byudjeti deb yuritiladi) to'g'risidagi ma'lumotlarning ochiqligi va shaffofligini hamda fuqarolarni byudjet jarayonidagi ishtirokini ta'minlash maqsadida: 2018 yildan boshlab "Fuqarolar uchun byudjet" axborot nashri ishlab chiqilmoqda; Davlat byudjeti to'g'risida batafsil ma'lumotlar joylashtirilib kelinayotgan "Openbudget.uz" axborot portali 2019 yilning

yanvar oyidan boshlab ishga tushirildi; Davlat byudjeti ijrosi to'g'risidagi ma'lumotlar Davlat moliyaviy statistikasi (GFS) standartlariga muvofiq shaklda Xalqaro valyuta jamg'armasining saytida joylashtirib borilmoqda; 2019 yildan boshlab tuman va shahar byudjetlarida hosil bo'ladigan qo'shimcha manbalarining kamida 10 foizi fuqarolar tomonidan bildirilgan tadbirlarga asosan yo'naltirish mexanizmi joriy etildi; Byudjet mablag'larini tasarruf etuvchilar hamda mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan byudjet mablag'laridan foydalanish jarayonini to'liq o'z rasmiy saytlarida e'lon qilib borishlarini tartibga soluvchi qonun va qonunosti hujjatlariga tegishli normalar kiritildi. Shuningdek, 2020 yildan boshlab ilg'or xorijiy tajribadan kelib chiqqan holda Davlat byudjeti loyihasi ilk bora Qonun shaklida qabul qilindi hamda vazirlik va idoralarning vakolat va mas'uliyatini oshirish maqsadida byudjet xarajatlari avvalgidek sohalar bo'yicha emas, balki vazirlik va idoralar kesimida tasdiqlandi. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi respublika byudjeti xarajatlari O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis palatalari tomonidan, mahalliy byudjetlar esa tegishli xalq deputatlari kengashlari tomonidan tasdiqlash amaliyoti joriy etildi. 2018 va 2019 yillar davomida mamlakatda soliq islohotlari amalga oshirilib, iqtisodiyotga soliq yukini kamaytirishga erishildi, shuningdek soliq turlari maqbullashtirilib, qo'shilgan qiymat soliq to'lovchilar sonini oshirish hisobiga qo'shimcha qiymat solig'i zanjirini hosil qilishga erishildi. Yangi tahrirdagi Soliq kodeksida soliqlarni ortiqcha undirganlik uchun davlat soliq xizmati organlarining javobgarligi kuchaytirildi, zamonaviy usullarni qo'llagan holda xorijiy amaliyotda sinalgan soliq nazorati shakllari joriy etildi, shuningdek, soliqlarni hisoblash va to'lash tartiblari soddalashtirildi. Shu bilan birga, o'tkazilgan tahlil natijalari davlat moliyasini boshqarish tizimida mamlakatning o'rta va uzoq muddatli byudjet loyihalarini rejalashtirish bo'yicha qo'yilgan maqsadlarga erishish borasida qilinadigan ishlar ko'pligini ko'rsatdi. Xususan, byudjet tashkilotlari va muassasalari hamda davlat ulushi mavjud bo'lgan korxonalarining hisobi alohida yuritilishi, shuningdek vazirlik va idoralarning byudjetdan tashqari mablag'lari konsolidatsiyalashgan byudjetda aks ettirilmasligi Davlat byudjeti mablag'larining shaffofligini to'liq ta'minlashga to'sqinlik qilmoqda. Mahalliy byudjetlarni mustaqil ravishda belgilab olish imkonini beradigan byudjetlararo transfertlarni hisoblashning shaffof metodologiyasini ishlab chiqilmagan. Davlat xaridlari va investitsiyalarini boshqarish samaradorligini oshirish, davlat qarzini boshqarish strategiyasini ishlab chiqish, davlat aktivlari va majburiyatlarini boshqarish uchun tavakkalchiliklarni baholashning samarali tizimini joriy etish taqozo etilmoqda. Ko'rsatib o'tilgan kamchilik va muammolar amalga oshirilayotgan byudjet siyosatini obyektiv va ishonchli baholash imkonini bermaydi hamda byudjet xarajatlarini o'rta muddatga mo'ljallangan davlat dasturlari bilan samarali tahlil qilishga to'sqinlik qilmoqda. Shu munosabat bilan, bugungi kunda davlat moliyasini sog'lomlashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlari olib borish zarur hisoblanadi. Strategiyaning asosiy maqsadi har tomonlama puxta o'ylangan byudjet siyosatini olib borishni, mamlakatni ijtimoiy -

iqtisodiy rivojlantirishga yo'naltirilayotgan byudjet mablag'laridan foydalanish samaradorligini oshirishni, ularning shaffofligi va ochiqligini ta'minlashga qaratilgan davlat moliyasini boshqarishning samarali tizimini yaratishdan iborat. Strategiyaning maqsadlariga erishish uchun quyidagi asosiy vazifalarni amalga oshirish zarur:

– strategik maqsadlarga yo'naltirilgan hamda o'rta muddatga mo'ljallangan soliq-byudjet siyosatini yuritish;


– fiskal nazoratni kuchaytirish, birinchi darajali byudjet mablag'larini taqsimlovchilari uchun ajratiladigan byudjet mablag'larining chegaralangan miqdorlarini Oliy Majlis tomonidan belgilash orqali byudjet jarayoni ishtirokchilarining mas'uliyatini va hisobdorligini oshirish;

– uzoq muddatga davlat moliyaviy barqarorligini ta'minlashga yo'naltirilgan soliq-byudjet siyosatini joriy etish;

– byudjet jarayonining shaffofligi va byudjet ma'lumotlarining ochiqligini oshirib borish;

byudjetlararo munosabatlarni tubdan isloh qilish, mahalliy byudjetlarning mustaqilligini va javobgarligini oshirish hamda byudjetlararo transfertlar taqdim etishning shaffof mexanizmini joriy etish. Strategiyaning ishlab chiqishda nafaqat iqtisodiyoti rivojlangan davlatlar, balki moliyaviy-iqtisodiy jihatdan tuzilishi bo'yicha o'xshash mamlakatlar tajribasi ham o'rganib chiqilgan. Strategiyaning amalga oshirish davri 2024 yilgacha mo'ljallangan bo'lib, quyidagi oltita muhim maqsadlarni o'z ichiga oladi:

1-rasm



Mazkur Strategiyaning amalga oshirish uchun Moliya vazirligi tomonidan Strategiyada belgilangan maqsadlarga bosqichma-bosqich erishishni nazarda tutuvchi Harakatlar rejasini ishlab chiqilgan. Endi yuqorida belgilangan har bir maqsadga erish

uchun belgilangan ustuvor vazifalar bilan tanishib chiqsak. Birinchi maqsaddan kelib chiqib, davlat byudjeti daromadlari va xarajatlarini samaraliroq boshqarish imkonini yaratish maqsadida byudjet jarayoni ishtirokchilarining o'zni va byudjet vakolatlarini qayta taqsimlash zarur. Davlat byudjetining barqarorligi va daromadlarni prognoz qilish imkoniyatini oshirish, shuningdek samarali davlat siyosatini yuritish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun belgilangan maqsadlarga erishish uchun byudjet jarayonining barcha bosqichlarida vazirlik va idoralar faoliyatining o'zaro muvofiqligi va hamkorligini ta'minlash yuzasidan zarur tadbirlarni amalga oshirish. Davlat faoliyatining sezilarli qismi Davlat byudjeti jarayoni doirasidan tashqarida, ya'ni vazirlik va idoralar tomonidan amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning bir qismi ularning byudjetdan tashqari mablag'lari hisobidan, shuningdek davlat ishtirokidagi korxonalar hisobidan amalga oshirilmoqda. Uzoq yillar davomida byudjetlarning darajalari o'rtasida daromadlar va xarajatlarni o'tkazish vakolatlari aniq mustahkamlanmaganligi sababli mahalliy hokimiyat organlarida byudjet mablag'larining samaradorligi va natijadorligini oshirish uchun yetarli rag'batlantiruvchi omillar bo'lmagan. Bundan tashqari, ayrim davlat korxonalari faoliyatining samaradorligi pastligiga qaramasdan iqtisodiyotda davlatning sezilarli ishtiroki saqlanib qolmoqda. Shu munosabat bilan davlatning iqtisodiyotdagi ishtirokini qisqartirishga yo'naltirilgan davlat korxonalari faoliyatida tarkibiy o'zgartirishlarni amalga oshirish lozim. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda taklif etiladigan islohotlar byudjet ustuvorligini ta'minlash va Davlat byudjeti darajalari o'rtasida majburiyatlarni ajratish hisoblanadi. Davlat byudjetining to'liqligi, ishonchliligi va Davlat byudjetining strategik yo'naltirilganligini oshirish maqsadida barcha davlat maqsadli jamg'armalari hamda byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari shaxsiy g'azna hisobvaraqlaridagi mablag'larni Davlat byudjetiga qo'shish choralarini ko'rish, shuningdek, byudjet hisobotida Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalarining konsolidatsiyalashgan jami moliyaviy ko'rsatkichlarini yagona shaklda taqdim etish zarur. Davlat moliyasini boshqarishning yanada samarali va oqilona tizimini ta'minlash maqsadida byudjet tizimining byudjetlari o'rtasida xarajatlar bo'yicha majburiyatlarni aniq ajratishni va daromad olish manbalarini mustahkamlashni nazarda tutuvchi respublika va mahalliy byudjetlar o'rtasidagi byudjetlararo munosabatlarni takomillashtirish zarur.[4] Ikkinchidan, byudjet ma'lumotlarining ochiqligi, to'liqligi va xalqaro standartlarga mosligini ta'minlash maqsadi, davlat resurslariga oid oshkora, ishonchli va keng qamrovli ma'lumotlarni mavjudligi Davlat moliyasini boshqarish sohasida olib borilayotgan islohotlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishiga xizmat qiladi. Davlat moliyasi ma'lumotlarining keng qamrovlilik, qiyoslanuvchanligi hamda yaxlitligi soliq-byudjet siyosatini shakllantirishga strategik yondashuvni muvaffaqiyatli joriy qilishda, keyinchalik byudjetdan ajratiladigan mablag'larning samaradorligi va natijadorligini baholashga o'tishda to'liq, o'z vaqtida va ishonchli axborot bazasini yaratishni ta'minlaydi.

Amaldagi byudjet qonunchiligiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasining konsolidatsiyalashgan byudjetini tuzishda byudjet tizimi byudjetlari va O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'larining barcha daromadlari va xarajatlari hisobga olinadi, byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg'armalari mablag'lari, shuningdek ayrim davlat maqsadli jamg'armalari bundan mustasno. Bundan tashqari, davlat boshqaruvi sektori faoliyatining asosiy qismi byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'lari orqali amalga oshiriladi. Natijada, davlat sektorining ayrim xarajatlari, shuningdek, alohida pul oqimlar, shu jumladan davlat korxonalari faoliyati, davlat aktivlari va ayrim davlat majburiyatlari to'g'risidagi ma'lumotlar byudjet hisobotida aks ettirilmaydi. Shundan kelib chiqqan holda taklif etilayotgan islohotlar quyidagilardan iborat: – Soliq-byudjet hisobotlarining keng qamrovliligini, solishtiriluvchanligini va yaxlitligini yaxshilash; – Davlat soliq-byudjet siyosati mo'ljallari to'g'risidagi ma'lumotlarni kengaytirish lozim. Uchinchi maqsad bo'yicha davlat siyosatining o'rta va uzoq muddatli maqsadlarini qo'llab-quvvatlash va unga erishish talablariga javob beradigan samarali davlat moliyasini boshqarish tizimini yaratish maqsadida moliya yili davomida moliyaviy resurslarning yetarililigini baholash tizimi bo'yicha qabul qilingan siyosiy qarorlarning oqibatlarini hamda ajratilgan byudjet mablag'laridan foydalanish natijalarini baholashga o'tishni nazarda tutuvchi hamda soliq-byudjet siyosatiga strategik yondashuvni joriy etish yuzasidan choralar ko'rish lozim. Davlat byudjeti kelgusi moliya yili uchun asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozlarini baholashni hamda kelgusi ikki yil uchun maqsadli ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi, lekin ularni ishlab chiqishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ko'zda tutilmagan vaziyatlarni o'z ichiga olmaydi. Bu esa makroiqtisodiy statistikaning sifati bilan bog'liq muammolar prognozlarining ishonchliligini baholashni qiyinlashtiradi.[5] Byudjetni rejalashtirishning amaldagi tizimida strategik yondashuvning yo'qligi fiskal siyosatning ustuvor yo'nalishlari va Davlat byudjetining moliyaviy imkoniyatlari asosida byudjetdan ajratiladigan mablag'larni taqsimlashni cheklaydi, bu esa byudjet majburiyatlarining mantiqsiz o'sishiga va ajratilgan byudjet mablag'laridan samarali foydalanishni nazorat qilinmasligiga olib keladi. Shulardan kelib chiqqan holda amalga oshirilishi zarur bo'lgan islohotlar quyilagilardan iborat:

1. Byudjet jarayonini takomillashtirish
2. O'rta muddatli byudjet asoslarini ishlab chiqish (MTBF)
3. Byudjetni samaradorlik va natijadorlikka qarab yo'naltirilganligini oshirish
4. Davlat investitsiyalarining samaradorligini oshirish

To'rtinchi maqsad bo'yicha, davlat moliyasini uzoq muddatli barqarorligi va oldindan prognoz qilish imkoniyatini baholash uchun fiskal tavakkalchiliklar tahlilini va ularning oshkor etish jarayonini yaxshilash choralarini ko'rish lozim. Fiskal tavakkalchiliklarni tahlil qilish va ularni boshqarish davlat sektorida soliq-byudjet

siyosatiga oid qarorlarni qabul qilish jarayonini samarali muvofiqlashtirishni ta'minlaydi. Bu bo'yicha taklif etilayotgan islohotlar quyidagilardan iborat:[6]

1. Tavakkalchiliklarni boshqarish tizimini joriy etish
2. Aktivlar va majburiyatlarni boshqarish tizimini mustahkamlash

3. Davlat qarzini boshqarish tizimini takomillashtirish Beshinchi maqsad bo'yicha, byudjet jarayoni ishtirokchilarining o'rni va vazifalarini qayta ko'rib chiqish, vazirlik va idoralar - byudjet mablag'larini taqsimlovchi (oluvchi)larning mustaqilligini va byudjetdan ajratiladigan mablag'lardan samarali foydalanish va natijadorlik bo'yicha javobgarliklarini oshirishni nazarda tutgan holda davlat sektorida hisob yuritishning amaldagi tizimini qayta ko'rib chiqish va byudjet mablag'larini taqsimlovchi (oluvchi)larning soliqbyudjet sohasida javobgarligini va hisobdorligini kuchaytirishni talab qiladi. Hozirgi vaqtda buxgalteriya hisobining xalqaro standartlarini davlat sektoriga joriy etish bo'yicha choralar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, davlat sektorida buxgalteriya hisobining xalqaro standartlariga to'laqonli o'tish, qadrlar tayyorlash va tegishli dasturiy ta'minotlarni takomillashtirish zarurati tufayli uzoq vaqt talab etishi mumkin. Bundan tashqari, alohida vazirlik va idoralarda ichki nazorat va audit xizmati ta'sis etilgan. Biroq, ichki audit xizmati faoliyatining huquqiy va metodolik asoslari mavjud emasligi, ularning faoliyati faqat byudjet mablag'laridan maqsadsiz va samarasiz foydalanish bilan bog'liq tartib buzilish holatlarini aniqlashga qaratilganligi tufayli ushbu xizmatlar faoliyatining samaradorligi chegaralanib qolgan. Bu sohada taklif etilayotgan islohotlar quyidagilardan iborat:

1. Davlat sektorida byudjet hisobi standartlarini unifikatsiyalash;
2. Ichki nazorat va ichki audit tizimini takomillashtirish;
3. Davlat moliyasi ustidan tashqi nazoratni kuchaytirish;
4. Byudjet jarayonida jamoatchilik ishtirokini ta'minlash.

Oltinchi maqsad bo'yicha, davlat moliyasini boshqarish tizimida islohotlarni amalga oshirish va ularning natijalarini mustahkamlash uchun davlat organlarida institutsional salohiyatni oshirish-strategiyaning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. O'rta muddatli byudjetni rejalashtirishga to'liq muvaffaqiyatli o'tish uchun mas'ul bo'lgan moliya organlarining makro-fiskal faoliyati cheklangan va jahon amaliyotiga mos kelmaydi. Jumladan, Iqtisodiyot va sanoat vazirligining makroiqtisodiy prognozlarni tayyorlash uchun mas'ul ekanligi buning isbotidir. Moliya vazirligi Davlat byudjeti daromadlarini prognozlash va tahlil qilish funksiyasini bajaradi, ammo o'rta muddatda davlat moliyasi va fiskal tavakkalchiliklarning barqarorligini baholash funksiyasi mavjud emas. Shundan kelib chiqib taklif etilayotgan islohotlar quyidagilardan iborat:[7]

1. Davlat moliyasini boshqarish sohasida qonunchilik bazasini mustahkamlash;
2. Makro - fiskal tahlil funksiyalarini mustahkamlash;
3. Moliya vazirligi tarkibiy tuzilmasini qayta ko'rib chiqish;
4. Davlat xaridlari tizimini mustahkamlash;

Xulosa

Tadqiqotimiz oldiga qo'yilgan maqsad va unga samarali yo'llar bilan erishish uchun rejalashtirilgan vazifalarni maxsus adabiyotlar hamda me'yoriy xujjatlar, shuningdek xorijiy tajribalarni o'rganish, tahlil qilish va tadqiq etish jarayonida qator ilmiy asoslangan xulosalarni chiqarishga muvafaq bo'lindi. Shulardan asosiylari bo'lib quyidagilar hisoblanadi. Xususan:

1. Byudjet mablag'larini taqsimlovchilar va mahalliy davlat hokimiyati organlarining byudjet sohasidagi vakolatlarini va hisobdorligini oshirish hamda ularning mas'uliyatini kuchaytirish.

2. Byudjet ma'lumotlarining ochiqligi, to'liqligi va xalqaro standartlarga mosligini ta'minlash.

3. Soliq-byudjet siyosatiga strategik yondashuvni tatbiq etish maqsadida o'rta muddatli byudjet asoslarini ishlab chiqish hamda yillik byudjetni shakllantirishning yangi "natijaga yo'naltirilgan byudjet" tizimini joriy etish.

4. Fiskal tavakkalchiliklarni baholash, moliyaviy aktivlar va majburiyatlar hisobini yuritish hamda ularni samarali boshqarish tizimini joriy etish.

5. Byudjet hisobi standartlarini unifikatsiya qilish, ichki nazorat va audit tizimini takomillashtirish orqali moliyaviy intizomni mustahkamlash hamda byudjet jarayoni ustidan parlament va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish;

6. Institutsional va qonunchilik bazasini mustahkamlash.

FOYDALANILGAN ALABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi" to'g'risidagi PF-60 farmoni.

2. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Toshkent:

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2020-2024 yillarda O'zbekiston Respublikasi davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori. 2020 yil

4. Jumaniyozov, I. T. (2021). The Progressive Foreign Experiments in the Activity of Sovereign Wealth Funds. *Annals of the Romanian Society for Cell Biology*, 109- 116.

5. Jumaniyozov, I. (2018). Impact of Development Finance Institutions on Economic Growth: Implications for Reconstruction and Development Fund of Uzbekistan. *International Journal of Management Science and Business Administration*, 4(2), 84-88.

6. Jumaniyozov, I. (2020). FOREIGN EXPERIENCE IN THE ACTIVITIES OF SOVEREIGN FUNDS. *International Finance and Accounting*, 2020(2), 1.

7. Jumaniyozov, I. (2020). ISSUES OF ENSURING THE TRANSPARENCY OF SOVEREIGN WEALTH FUNDS. *International Finance and Accounting*, 2020(5), 1. 8.

Кабулов, Х. А. (2020). Вопросы финансовой безопасности в условиях модернизации Республики Узбекистан. Интернаука, (3-2), 12-14.